



## ZAMON VA SHAXS RUHIYATINING OBRAZLAR ORQALI AKSLANISHI

Umaraliyeva Nafisa Qurbonali qizi

Umaraliyevanafisa38@gmail.com

+998999260198

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19706037>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-aprel 2026 yil

Ma'qullandi: 20-aprel 2026 yil

Nashr qilindi: 23-aprel 2026 yil

### KEYWORDS

*metaforik uslub, qofiya, bo'g'in, an'anaviylik, ijtimoiylik, obraz, poeziya..*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Rauf Parfi ijodida zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali ifodalanish masalasi tahlil qilinadi. Shoir lirikasida inson ruhiyati, zamon talotumlari va milliy o'zlikning poetik in'ikosi o'ziga xos badiiy vositalar bilan yoritilgan. Rauf Parfi asarlarida shaxsning ichki iztiroblari, ruhiy ziddiyatlari, ozodlikka intilishi hamda zamon ruhi bilan uyg'un holda tasvirlangan obrazlar tizimi ilmiy-nazariy asosda o'rganiladi.*

Siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar XX asr ijodkorlarida yangi ong va tafakkurni uyg'otdi. Ular odam bilan bog'liq nozik masalalarga e'tibor qaratdilar va shu paytgacha hukmronlik qilayotgan akademizmlardan, madaniy qoliplardan uzoqlashdilar, adabiyot erkinlashdi. Ko'plab mualliflar uchun qofiya va metrikalar o'tib ketdi, mavzu va shakllarning go'zalligidan ustun keldi. Jahon zamonaviy san'ati keng rivojlanib bormoqda u o'zigacha bo'lgan ijodiy oqimlar inkori bilan birga san'at va adabiyotga yangilik taqdim eta oldi.

Bu oqim vakillari dunyoni aqlga tayanmagan holda, "hissiy tafakkur" yordamida anglash mumkin deb biladilar. Rauf Parfi ham shu oqim yangiliklari va izlanishlarining vakili edi.

Qora osmon,

Qayg'uli osmon

Qovog'idan qor yog'adi.

Jim.

Uningsiz ham shodligim yolg'on

Uningsiz ham yo'qdir shodligim.[1, 78]

Shoirning yuqoridagi she'ri oq she'r shaklida yozilib qofiyalanish tartibi tizimli emas, biroq zamon va shaxs ruhiyatini ko'rsatib berish uchun ayni shu tizimli she'r zamon ruhi tasviriga mos tushgan. She'rga "Shodlik" deb nom bergan ijodkor qora osmon tasviri bilan boshladi misralarni, qayg'uli, qovog'idan qor yog'moqda biroq jim. Shodligi esa yolg'on, misralar davom etar ekan lirik qahramon go'yo mashuqaga murojaat etadi va yana davr tasviriga chog'lanib:

Mas'um bu kech.

Mash'um bu kech.

Qassob bu kun.

Qasos bu kun.[1, 78]

deya, davr chizgilarini yaratadi. Rauf Parfi tabiatan kamsuqum, zohidona ijodkor bo'lgani holda, zamona zaylini teran anglagan xalqining taqdiriga befarq bo'lmagan, ko'zi bilan ko'rib turgan voqealarni she'rlarida akslantirishga harakat qilgan. Uning xalqi mas'um edi, mas'umlarning qoshida mash'um voqealar sodir bo'lmoqda, mas'umlarning boshida qassoblar hukm qilmoqda, sodda, dilgir mas'um xalq tasvir etilgan

Eshityapsanmi yig'i tovushin?

So'yilgan ozodlik xirillar.[1, 78]

Ijodkor kitobxonga aytmoqchi bo'lgan asosiy g'oya tasvir etilgan. So'yilgan ozodlik tushunchasi mustabidlik, qaramlik, zamona zayli bu tushunchalar ijodkorni ilhomlantirgan va mustaqillik g'oyalari sari chorlagan. Shoir yuqoridagi o'rinda ozodlik va shodlik tushunchalarini sinonim tarzda qo'llaydi. She'r davom etarkan unda bir yigit obrazi gavdalandirilib, u ozodlik, shodlik tushunchalaridan bebaxra–yu bexabar dunyodan ketgani tilga olinadi. Yozuvchi Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanida mustabid tuzum davridagi ozodlikdan bebaxra uch avlod tasviri berilgandi ana o'sha uch avlod vakillari Rauf Parfining misraliridagi "sening borligingdan bebaxar ketdi bir yigit" - deya tasvirlangan obraz orqali ham bo'y ko'rsatadi. Mustaqillik uchun kurasha olmagan, hatto u haqida o'ylab ham ko'rmagan oddiy xalqni gavdalandirishga hizmat qilmoqda. Bir yigit obrazining tasviri keyingi misralarda davom etadi:

Butundir oyog'i

To'rvasida ishsizlikning yorlig'i.

Qornida

O'tgan kungi yog'siz yovg'onning baxtiyorligi.[1,79]

Yuqoridagi misralar realistik va ijtimoiy-satirik uslubda yozilgan. Shoir badiiy ifoda vositalari orqali jamiyatdagi kambag'allik, ishsizlik va inson qashshoqligining ma'naviy og'rig'ini ironik tarzda ko'rsatgan. Minimalizm – oz so'z bilan katta ma'noni ifodalash, uch satr, ammo butun ijtimoiy qatlam ko'rsatilgan va qator poetik uslubiy o'ziga xosliklardan foydalangan xususan, ironiya – "baxtiyorligi" so'zi istehzoli ohangda ishlatilgan. Aslida bu "baxt" emas, kulfat. Kontrast (tazod) – "butundir oyog'i", tashqi sog'lomlik – "ishsizlikning yorlig'i", ichki muammoli hayot. Metonimiya va ramz – "to'rva" (xaltacha) — kambag'allik timsoli, "yorliq" — ishsizlikning muhridir. Ko'rinadiki, uslub ijtimoiy-psixologik realizm bilan satirik ifodaning qorishmasidir.

Ijodkor obrazlar orqali ham zamon va shaxs ruhiyatini ko'rsatib beradi. "butundir oyog'i" — bu tashqi ko'rinishda sog'lom, ammo ruhiy va ijtimoiy jihatdan ezilgan odam obrazidir. Uning oyog'i butun, lekin hayoti yarim, "to'rvasida ishsizlik yorlig'i" — bu uning jamiyatdagi maqomi yo'qligini ko'rsatadi. To'rva obrazi – oddiy mehnatkash kishining hayotiy atributi, dunyo, zamon yukining ramzi, shoir inson taqdirini shu ramzga joylashtirgan. "Yog'siz yovg'on" — oddiy xalq noni, ammo "baxtiyorlik" so'zi bilan birga kelishi orqali achchiq istehzo yaratilgan.

She'r ijtimoiy og'riqni badiiy shaklda ifodalab, real hayotning achchiq haqiqatini ironik tonda ochib beradi. Oddiy xalq hayoti orqali keng ijtimoiy ma'noni mujassamlashtiradi.

Adabiyotshunos D. Quronov takidlaganidek badiiy adabiyot ikkiyoqlama mohiyatga ega, bir tomondan san'at hodisasi, ikkinchi tomondan ijtimoiy ong shakllaridan biridir.

Ijodiy jarayon mahsuli bo'lgan birliklar avvalo ruhiy faoliyat mahsulidir. Ruhiy faoliyat ham o'z o'rnida ikkiga bo'linadi "aqliy" va "hissiy", falsafiy nuqtai nazardan bu bilish jarayonidir. Bu birliklar qushning ikki qanoti, zero ijodkor ijtimoiy reallikni dastlab "aqliy" bila olishi

so'ngra, "hissiy" bilish birligiga aylantirmog'i darkor. Ijtimoiy reallik hissiy bilish birligiga aylangach u san'at asari, badiiy mazmun mundarijasiga ega bo'lgan asarga aylanadi. Rauf Parfi ijtimoiy dard bilan yashagan va shu dard bilan yashnagan ijodkoridir. Lirikada qalam tebratgan ijod ahli avvalo o'z "men"i ya'ni shoir shaxsi hamda ijtimoiylikni singdira olmog'i darkor. O'tgan asrning 30-60 yillarida sotsial realizm oqimi adabiyotda kuchaytirildi biroq, shoir shaxsiyati asarga singdirilishiga yo'l qo'yilmadi. Shoir mustabid tuzum davrdagi ijtimoiy vaziyatni o'zining ilmiy farazlarini maqolalarga ham jamlagan "Zulm va she'riyat", "Davr bilan hamnafas so'zlar", "Mantiqdan yiroq", "Keyin keyinimiz", "She'riyat huquqi" va boshqa qator maqolalari va intervyularida ijodkor ayni davr ijodiy jarayoni hamda ijtimoiy muhit haqida so'z yuritadi.

"Davrnin ilg'or ijtimoiy maqsadini o'zining estetik idealiga singdirgan san'atkor voqelikni o'sha ideal nuqtayi nazardan baholaydi. ... chinakam san'atkor nima haqida yozishidan qat'i nazar, - u ma'naviy muammolarni badiiy taqiq etadimi, o'z qalbiga nigoh tashlaydimi,... - o'z badiiy tasvir va tadqiq predmeti sifatida olgan narsani umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazardan yoritadi." - deb ta'kidlaydi Dilmurod Quronov.

Adabiyot bilan zamon va makon ham shartli, ham uzviy bog'liqlikka ega. Adabiyot boshqa san'at turlariga qaraganda zamon, davr muhiti va makon jihatidan eng qulay tasvirlovchi hisoblanadi. "Tasvirlarning nomoddiyligi adabiyotda bir vaqtning o'zida bir zamondan ikkinchisiga o'tish imkonini beradi. Boshqa adabiyot turlari kabi lirika ham real hayotning aksi o'laroq shakllanadi." [6, 70]

She'riyatga dahli bor har qanday kishi o'z zamonasidan ilhom, badiiy ozuqa olib ijod na'munalarini yaratadi. Rauf Parfining "Tong otmoqda..." she'ri shunday haqiqatni ko'rsatuvchi o'ziga xos poetik chizigilar bilan tasvirlanadi.

Tong otmoqda, tong o'qlar otar,  
Tong otmoqda, quyosh zambarak.  
Yaralangan yer shari yotar,  
Boshlarida yashil chambarak.[2, 251]

Tong otishi, kunning boshlanishini har bir ijodkor o'ziga xos poetik chizgilar bilan tasvirlaydi. Biroq Rauf Parfi Raufona metaforik o'xshatishdan foydalanib, quyoshni to'g'ridan-to'g'ri zambarakka mengzaydi. Qorong'u tunga qarata o'q otayotgan zambarak - beqiyos simvulli chizgilar bilan tasvir etiladi. Yaralanganda boshiga yashil chambarak o'ralgan zamin - istibdod davrida millat va vataniga kelgan adoqsiz jarohatni shoir o'quvchi qalbiga hayrat soladigan obrazli tasvirlaydi. Mumtoz adabiyotimizga xos tashxis: tongni o'qlar otayotganga, sifatlash: yerni sharini yaralanganga, tashbeh: quyoshni zambarakka mengzash singari badiiy san'atlarni qo'llash orqali lirik tasvir mukammalligi tamin etilgan.

#### Foydalanilgan adabitlar ro'yxati:

1. R.Parfi. Saylanma. - Toshkent: Akadem nashr, 2013. B.
2. R. Parfi. Turkiston ruhi. - Toshkent: Sharq, 2013. - B. 319.
3. R. Parfi. Sabr daraxti. - Toshkent: G'. G'ulom, 2013. B.
4. R. Parfi. So'ngi vido. - Toshkent: A. Navoiy nashriyoti. 2006.
5. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. - Toshkent: Akademnashr, 2013. - 336 b.
6. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. - Toshkent: Hayot, 2004. -209 b.